

AMIR TEMUR HOKIMIYATINI MUSTAHKAMLASHDA TERMIZNING O'RNI

Mamarasulova Maftuna Qurbonmutovna

Termiz davlat universiteti

Tarix fakulteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20827762>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Amir Temur va Temuriylar davrida Termiz shahrining harbiy-strategik, siyosiy hamda ma'naviy hayotdagi o'rni tadqiq etiladi. Tarixiy manbalar asosida Termizning Sohibqiron hokimiyatini mustahkamlashdagi hissasi, Termiz sayyidlarining davlat boshqaruvidagi ma'naviy ta'siri, Sayyid Barakaning Amir Temur hokimiyatini qonuniylashtirishdagi roli, shuningdek, Temuriylar va Termiz sayyidlari o'rtasidagi sulolaviy aloqalar tahlil qilinadi. Maqolada Termizning "Madinat ar-rijol" ("Mardlar shahri") sifatidagi nufuzi, Amudaryo kechuvining strategik ahamiyati hamda Temuriylar davridagi iqtisodiy va madaniy taraqqiyot jarayonlari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: Amir Temur, Termiz, Termiz sayyidlari, Sayyid Baraka, Madinat ar-rijol, Amudaryo kechuvi, Temuriylar, sulolaviy nikohlar, Zaynab Sultonbegim, Zafarnoma.

Kirish. Amir Temur saltanatining shakllanishi va yuksalishida harbiy qudrat bilan bir qatorda kuchli siyosiy va ma'naviy tayanchlarning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etgan. Ana shunday tayanchlardan biri sifatida qadimiy Termiz shahri alohida o'rin tutadi. Geografik jihatdan Amudaryo bo'yidagi muhim strategik hududda joylashgan Termiz XIV–XV asrlarda nafaqat harbiy harakatlar markazi, balki yirik siyosiy va diniy-ma'naviy maskan sifatida ham tanilgan. Sohibqironning davlatni birlashtirish va mustahkamlash siyosatida Termizning harbiy-strategik imkoniyatlari hamda bu erda istiqomat qilgan nufuzli sayyidlar sulolasining ma'naviy ta'siri muhim omillardan biri bo'lgan.

Asosiy qism. XIV asrda Termiz Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan eng muhim chegara va savdo markazlaridan biri hisoblangan. Tarixiy ma'lumotlarda qayd etilishicha, shahar aholisi mo'g'ul bosqinchilariga qarshi qat'iy va mardonavor kurash olib borganligi sababli Termiz "Madinat ar-rijol" — "Mardlar shahri" nomi bilan shuhrat qozongan. Bu nom shaharning nafaqat harbiy qudratini, balki uning aholisi jasoratini ham ifodalaydi.

Amir Temur faoliyatida Termizning harbiy-strategik ahamiyati ayniqsa katta bo'lgan. 1370-yildan keyin Sohibqironning Xuroson, Afg'oniston va janubiy hududlarga uyushtirgan deyarli barcha yurishlari Termiz orqali amalga oshirilgan. Amudaryodagi Termiz kechuvi Movarounnahr bilan Xurosonni bog'lovchi eng muhim strategik nuqta vazifasini bajargan. Shu sababli Termiz qal'asi saltanatning janubiy chegaralarini himoya qiluvchi mustahkam harbiy tayanch sifatida rivojlantirilgan.

Termizliklar Amir Temurning hayotida ham muhim o'rin tutgan. Jumladan, 1362-yilda Sohibqiron og'ir ahvolga tushib qolgan paytda termizlik vazir Azizuddin Termiziy unga yordam berib, hayotini saqlab qolgan. Amir Temur bu voqeani yuksak ehtirom bilan eslab, "Temur tuzuklari"da: "Bu ish bilan menga quvvat bag'ishladi, shijoat va mardligim tutib, najot topdim", deb yozadi. Ushbu voqea Termiz ahlining Sohibqiron faoliyatidagi o'rnini yaqqol ko'rsatadi.

1370-yilda Balxda o‘tkazilgan qurultoyda Amir Temur Movarounnahr hukmdori sifatida e‘lon qilindi. Biroq u rasman “xon” unvonini qabul qilmadi. Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiy ma‘lumotlariga ko‘ra, Temur Chig‘atoy sulolasiga mansub xon nomidan hokimiyat yuritgan. Bu siyosiy usul Sohibqiron hokimiyatining qonuniyligini ta‘minlashga xizmat qilgan.

Ya‘ni amalda davlat boshqaruvi Temur qo‘lida bo‘lsa-da, rasmiy jihatdan Chingiziy sulola vakili xon sifatida saqlab qolingan. Bu holat “Temur tuzuklari”da ham bilvosita o‘z aksini topgan.

Amir Temur hokimiyatining ma‘naviy asoslarini mustahkamlashda Termiz sayyidlari alohida rol o‘ynagan. Xususan, 1370-yilning mart oyida (hijriy 771-yil Sha‘bon oyida) Termizda bo‘lib o‘tgan tarixiy uchrashuv davlat taqdirida muhim ahamiyat kasb etdi. Mashhur piri komil Sayyid Baraka Amir Temurga oliy hukmdorlik ramzi hisoblangan nog‘ora va bayroqni topshirgan.

Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida qayd etilishicha, Sayyid Baraka Temurga buyuk g‘alabalar va jahongirlik istiqbolini bashorat qilgan. Ushbu voqea Sohibqiron hokimiyatining diniy-ma‘naviy jihatdan e‘tirof etilishiga va xalq orasida uning nufuzini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Amir Temur Termiz sayyidlariga yuksak hurmat bilan qaragan va bu an‘anani o‘z avlodlariga ham vasiyat qilgan. Natijada XIV–XV asrlarda Temuriylar va Termiz sayyidlari o‘rtasida yaqin sulolaviy aloqalar shakllangan. Jumladan, Temuriy shahzodalar Sulton Mahmud Mirzo hamda Sulton Ahmad Mirzo Termiz sayyidlari xonadonidan bo‘lgan Xonzodabegimlarga uylanganlar. Keyinchalik Zahiriddin Muhammad Bobur ham ushbu an‘anani davom ettirib, Termiz sayyidlaridan bo‘lgan Zaynab Sultonbegimni nikohiga olgan. Bu nikohlar nafaqat qarindoshlik aloqalarini, balki siyosiy va ma‘naviy hamkorlikni ham mustahkamlab borgan.

Termiz sayyidlariga bo‘lgan hurmatning yana bir yorqin ifodasi sifatida Mirzo Ulug‘bek tomonidan Shahrisabzda “Gumbazi sayyidon” maqbarasi bunyod etilgan. Mazkur maqbara keyinchalik Termiz sayyidlari uchun dafn maskaniga aylangan. Bu esa Temuriylar sulolasining sayyidlarga bo‘lgan ehtiromi va ularning jamiyatdagi nufuzini ko‘rsatadi.

Temuriylar davrida Termiz iqtisodiy va madaniy jihatdan ham yuksak taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi. Ispaniya qiroli elchisi Rui Gonsales de Klavixo o‘z esdaliklarida Yangi Termizning qadimgi shahardan to‘rt barobar katta ekanligini, shahardagi bozorlar, do‘konlar va hammomlarning rivojlanganligini alohida ta‘kidlaydi. Uning yozishicha, Termizdagi bunyodkorlik ishlari va shahar hayotining jonliligi xorijlik sayyohlarda katta taassurot qoldirgan. Shahar iqtisodiyotini tiklash va rivojlantirish maqsadida Amir Temur tomonidan turli kasb egalari, jumladan novvoylar, qassoblar va boshqa hunarmandlar bu erga ko‘chirib keltirilgan. Natijada Termiz mintaqaning muhim iqtisodiy markazlaridan biriga aylangan.

Temuriylar davrida Termiz ilm-fan va madaniyat markazi sifatida ham rivojlandi. Shahardan etishib chiqqan mashhur rassom Mir Sayyid Ali (Judoiy) o‘zining yuksak badiiy mahorati bilan Temuriylar davri san‘atining taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan. Shu bilan birga, Termizdagi Hakim at-Termiziy majmuasi va Sulton Saodat me‘moriy ansamblarida keng ko‘lamli ta‘mirlash hamda obodonlashtirish ishlari olib borilgan. Bu esa shaharning ma‘naviy va madaniy mavqeini yanada oshirgan.

Xulosa. Amir Temur hokimiyatining shakllanishi va mustahkamlanishida Termiz shahri muhim harbiy, siyosiy va ma'naviy tayanch vazifasini bajargan. Termizning Amudaryo bo'yidagi strategik joylashuvi Sohibqiron yurishlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim omil bo'lgan bo'lsa, Termiz sayyidlari, ayniqsa Sayyid Barakaning ma'naviy ko'magi Amir Temur hokimiyatining qonuniylashuvi va xalq tomonidan e'tirof etilishida katta ahamiyat kasb etgan.

Temuriylar va Termiz sayyidlari o'rtasidagi sulolaviy aloqalar esa davlat barqarorligi va siyosiy birdamlikni mustahkamlagan. Shu tariqa Termiz Amir Temur va Temuriylar davrida harbiy qudrat, ma'naviy nufuz va madaniy taraqqiyot markazi sifatida o'zbek davlatchiligi tarixida muhim o'rin egallagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jaloliddin Mirzo. Termiz tarixi. – Toshkent: Sharq, 2001.
2. Jaloliddin Mirzo. Termizning muxtasar tarixi. – Termiz: Kitob nashr, 2025.
3. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – Toshkent: Fan, 1997.
4. Temur tuzuklari. – Toshkent: Sharq, 1991.
5. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1997.
6. Василий Бартолд. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Москва, 1963.
7. Mavlanov O'. Amir Temur va temuriylar davri renessansida ta'lim tizimining tutgan ahamiyati. "Xalq so'zi". 2022.09.04.